

*TMC instituti 2-bosqich talabasi**Toshpo'latova Nilufar**Ilmiy rahbar Haydarov.S*

Annotatsiya: ushbu maqolada mahalla ijtimoiy o'z – o'zini boshqarish organi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, mahalla va uning qadriyatlari tizimi xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: mahalla, o'zini o'zi boshqarish organlari, hamkorlik, obod mahalla, mahallabay ish dasturlari.

Аннотация: в данной статье даны взгляды на проводимые реформы в системе органов социального самоуправления махалли, на особенности махалли и ее системы ценностей.

Ключевые слова: махалля, самоуправление, сотрудничество, процветающая махалля, программы работы по махаллям.

Annotation: This article provides insights into the ongoing reforms in the neighborhood social self-governing body system –, the neighborhood and its value system.

Keywords: neighborhood, self-government, cooperation, prosperous neighborhood, neighborhood work programs.

KIRISH

Mamlakatimizda kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati, huquqiy-demokratik davlatga o'tish jarayoni kechayotgan bugungi kunda mahalla tizimining jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va roli nihoyatda katta. Xusan, mahalla odamlarning o'y-fikrlari, orzu-istiklari va manfaatlarini qo'llab-quvvatlaydigan, barcha ezgu va xayrli ishlarga tamal toshi qo'yiladigan maskandir.

Mahalla qadimdan tarbiya o'chog'i, odamlarni hamjihatlik, uyushqoqlik asosida turmush kechirishlarini ta'minlovchi go'sha hisoblangan. Katta hayotiy tajribaga ega keksalar, ko'pni ko'rgan nuroniyalar mahalladagi barcha ishlarni, marosimu to'ylarni boshqarganlar. Mahalla ahliga barcha masalalarda yo'l-yo'riq, maslahatlar bergenlar. Har bir oilaning tinch-totuvligi, har bir kishining odob-axloqi, hulqi, yurish-turishi mahalla kattalari tomonidan nazorat qilingan, boshqarilgan. Shu ma'noda aytish mumkinki, mahalla mazmun va mohiyatiga ko'ra xalqimizning milliy qadriyatlari, urfatatlari ulug'lanadigan, o'ziga xos tarbiya va ma'naviyat beshigi hisoblanadi.

O'tgan qisqa davrda aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo'yicha "mahalla — sektor — Xalq qabulxonasi — mahalla" tamoyili asosida samarali hamkorlik tizimini joriy etish, mahallani xalq bilan davlat o'rtasida ishonchli "ko'prik" bo'lishini

amalda ta'minlash, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, fuqarolar yig'inlariga xos bo'lмаган funksiyalar yuklatilayotganligi, ularning boshqa quyi idoralari bilan hamkorligi tizimli yo'lgan qo'yilmaganligi, oila, xotin-qizlar va keksalarga yordam ko'rsatishning yaxlit tizimi mavjud emasligi, huquqbazarliklarni barvaqt oldini olish bo'yicha ko'rيلayotgan choralar samarali natija bermayotganligi jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish va qonun ustuvorligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Aholi osoyishtaligini ta'minlash, oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish, nuroniylar ijtimoiy faolligini oshirish, mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari roli va mavqeyini yanada mustahkamlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi, shuningdek, davlat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi, qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlarni amalga oshirishda ularga ko'maklashadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi va mahallalar faollarining har bir mahallada "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan quyidagi yo'nalishlarni nazarda tutuvchi yangi tizimni joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qillanбю

Jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish; xotin-qizlar ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish; jamiyat va oilada sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish; mahalla institutining ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlari bilan uzluksiz, tizimli hamkorligini yo'lgan qo'yish; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari va ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlarining (keyingi o'rnlarda — profilaktika inspektori) roli va mavqeyini yanada oshirish, mustaqilligi hamda vakolatlarining amaliy samaradorligini ta'minlash vazifalari takomillashtirildi.

ASOSIY QISM

Bugun jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining to‘laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko‘maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o‘rnatish;

oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, “Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko‘maklashishni tashkil etish;

xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minalash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minalash;

xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo‘lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish;

xotin-qizlarning bandligini ta’minalash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo‘llab-quvvatlash;

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mahalla tizimini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o‘rni va rolini kuchaytirish, aholi kundalik muammolari bilan ishslash va ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi mavqeyini yuksaltirish; mahallalarda qonun ustuvorligini ta’minalash va huquqbazarliklarning oldini olish masalalarida ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligini mustahkamlash;

yolg‘iz keksalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan oilalarga moddiy ko‘maklashish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minalashda huquqiy, uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish, nuroniylarning bilim va boy hayotiy tajribasidan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash masalalarida samarali foydalanish;

fuqarolar yig‘inlarining moddiy-texnika ta’mintini yaxshilash hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlarining barchasi mahalla tizimining yanada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, 2021-yil 5-mart kuni Vazirlar Mahkamisining «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-

komunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, O‘zbekistonda har bir mahallaning ID identifikasiya raqami va hududiy chegarasi ko‘rsatilgan yagona elektron ma’lumotlar bazasi joriy etildi. 2021-yil 1-aprelgacha quyidagilar ishlab chiqilib, joriy etildi:

- har bir mahallaning ID identifikasiya raqami va hududiy chegarasi ko‘rsatilgan yagona elektron ma’lumotlar bazasi;
- ota-onalik huquqidan mahrum etilgan ota-onalar hamda vasiylikka va homiylikka olingan bolalar va oilaga tarbiyaga berilgan (patronat) bolalar bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazasi;
- davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar bo‘yicha tegishli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladigan yagona elektron axborot tizimi;
- fuqarolarning avtotransport vositalari sozligi yoki nosozligi bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazasi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi — fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o‘z manfaatlardan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir. Fuqarolar shaharchalar, qishloqlar, ovullar va mahallalarda o‘zini o‘zi boshqarishga doir o‘z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig‘inlari (vakillar yig‘ilishi) orqali amalga oshiradilar. Mahalla — bu fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqaradigan, kichik ma’muriy hudud. Yurtimizda “mahalla instituti” azaldan milliy qadriyatlar maskani bo‘lib kelgan.

Alohibda ta’kidlash lozimki, xalqimizning milliy tabiatni, azaliy an’analari va qadriyatlariga asoslangan mahalla o‘zining uzoq tarixida hech qachon

O‘zbekiston davlat mustaqilligi davridagidek alohibda e’tiborga sazovor bo‘lgan emas. Davlat mustaqilligi sharofati bilan O‘zbekistonda mahallalarga e’tibor berish, ularning ta’lim-tarbiyaviy huquqiy maqomini oshirish, o‘zini o‘zi boshqarish, beva-bechoralar, nogironlarning biron bir sababga ko‘ra omadi yurishmagan oilalar va odamlarning issiq-sovug‘idan, g‘am-tashvishlaridan xabardor bo‘lib, moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatish singari masalalar bo‘yicha, shuningdek yanada obod va go‘zal, ko‘rkam va chiroyli bo‘lishi, el-ulus mehr-muhabbatini qozonishida yangi davr boshlandi.

XULOSA

Insoniyat yaralibdiki, uning ma’naviy yuksalishiga beshik bo‘lgan, tarixi bir necha ming yillik tarixga borib taqaladigan, dunyoning barcha taraqqiyot bosqichlariga guvoh bo‘lgan, bag‘rida ham olis o‘tmish, ham bugungi tamaddun jarayonlarini namoyon etuvchi bir maskan bor. Bu maskan, shubhasiz, mahalladir. Mahalla – xalq

bilan mamlakat o‘rtasidagi ishonch ko‘prigi sifatida xizmat qiladigan, insonni jamiyatning bir qismi bo‘lishga o‘rgatadigan, uni bag‘rikenglik va xalqparvarlik ruhida tarbiyalaydigan makondir. Jonajon diyorimizda mahallalar juda ko‘p bo‘lib, ularning o‘ziga xos nomlari bizga tarixdan so‘zlaydi. Chunki ularda xalqimizning uzoq va shonli tarixi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, madaniy merosi aks etadi.

Mana shunday buyuk qadriyatlar maskani bo‘lmish mahallalarga e’tibor davlatimiz rahbari tomonidan kun tartibiga qo‘yilgan. Sharqqa xos madaniyatni o‘zida jamlagan mahallalarimiz nufuzini oshirish, mahalla orqali yurtimiz rivoji uchun xizmat qilish burchimizdir. Prezidentimiz o‘z nutqlarida “Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilib kelyapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Endi yana qo‘srimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu ham vakolat, ham mas’uliyat degani. Mahallalar – davlatimizning eng katta zamini” deb ta’kidlaganlari ham bejizga emas. Chunki mahallalar tom ma’noda xalqning dardini yengil qiluvchi, ularning ishonchli makoniga aylanmoqda.

2023 yil 26 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish, mahalla “yettiligi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda bir qator vazifalar belgilangan edi. Mazkur vazifalar ijrosini ta’minalash uchun mahalla boshqaruv tizimini takomillashtirish va mahalla “yettiligi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha Prezidentimizning 2023 yil 21 dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishslashini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, mahalla obodligini ta’minalash, “Obod mahalla”, “Obod ko‘cha”, “Obod xonardon” mezonlarini joriy etishda aholining faol ishtiroti va mas’uliyatini oshirish choralarini ko‘rish, mahallalardagi muammolarning o‘z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining sa’y-harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirish va yo‘naltirish, mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, kambag‘al oilalarga ajratilayotgan byudjet mablag‘lari va boshqa mablag‘larning maqsadli va manzilli yo‘naltirilishini ta’minalash, mahallalarning moddiy-texnika ta’mintonini yaxshilash, ularga ajratiladigan mablag‘larni markazlashgan tarzda taqsimlash, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, mahalla mas’ullarining malakasini oshirish, ularda zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalari shakllanishiga ko‘maklashish vazifalari belgilab berilganligi ta’kidlandi. Mahallalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etilishi, respublika kengashiga – Bosh vazir, hududiy kengashlarga esa hokimlar rahbarlik qilishi, kengashlar “mahalla yettiligi” qo‘ygan masalalarga yechim topishi, moliyaviy manbalarini hal qilib berishi alohida qayd etildi. Albatta, bu kabi aniq qo‘yilgan maqsad va vazifalar o‘z natijasini

beradi. Chunki xalqimiz ishonadigan va suyanadigan eng birinchi maskan bu – mahalladir. Shu boisdan ham xalqimizga yanada ko‘proq xizmat qilish uchun mahalla xodimlari soni endilikda “beshlik” emas, “yettilik” tizimiga o‘tkazildi. Ta’kidlash lozimki, yangidan tashkil qilinayotgan bu tizimdagи ijtimoiy xodimning vazifasi og‘ir ahvolga tushib qolgan yoki shu ahvolga tushish ehtimoli bo‘lgan fuqarolar hamda oilalar bilan ishlaydi, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularga kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni, ko‘maklashishni tashkil qiladi.

Soliq inspektori esa soliq bilan bog‘liq bo‘lgan mahalla ishlarini yuritishda faol bo‘ladi, tadbirkorlarga soliq xizmatlarini ko‘rsatish kabi ishlar bilan shug‘ullanadi.

Ko‘rib turganimizdek, qabul qilinayotgan qaror yoki farmonlarning tub mohiyati xalqimizning yaxshi sharoitlarda yashashi, har bir insonning rivojlanishi uchun foydali bo‘lishga qaratilgandir. Zero, Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba orttiramiz, yana o‘zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi tahlikalarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo‘limiz – mahalla, mahalla, mahalla va yana bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro‘yini qancha ko‘tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo‘ladi”. Bu ishlarga esa barchamiz mas’ulmiz.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.
2. Mirziyoyev SH.M .2023 yil 21 dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni
3. Karimov I. A., Bizdan ozod vaobod Vatan qolsin, T., 1996;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida
5. Mahalla: o‘zini o‘zi boshqarish huquqiy kafolati (qonunchilik va me’yoriy hujjatlar to‘plami), T., 1999;